

**BOBUR ILMIY MEROSIDA FARZAND TARBIYASI**

Muslimov Sherzod Akbarovich

Mustaqil tadqiqotchi

Samaqand davlat chet tillar instituti

muslimov.sherzod@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20178484>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-adabiy merosida farzand tarbiyasi masalalari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Boburning "Boburnoma" asari hamda boshqa tarixiy-adabiy manbalari asosida uning tarbiyaga oid qarashlari ochib beriladi. Xususan, maqolada ota-onaning mas'uliyati, yosh avlodni axloqiy yetuklik ruhida tarbiyalash, ilm-ma'rifatga hurmat, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi qadriyatlarning shakllanishi masalalari yoritiladi. Shuningdek, Bobur qarashlarining Sharq pedagogik tafakkuri bilan uzviy bog'liqligi, xususan, Alisher Navoiy va Abu Nasr Forobiy ta'limotlari bilan uyg'unligi ilmiy asosda ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari Bobur merosining zamonaviy tarbiya tizimida yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol etib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** farzand tarbiyasi, axloqiy tarbiya, ma'naviyat, ota-ona mas'uliyati, ilm-ma'rifat, vatanparvarlik, insonparvarlik, barkamol avlod, "Boburnoma", Sharq pedagogik tafakkuri.

**Kirish.** Zahiriddin Muhammad Bobur Sharqdagi o'rta asr mutafakkirlari ilg'or g'oyalarining asoschilaridan biri hisoblanadi. Bobur o'zbek xalqi ma'naviyati va umuman turkiy xalqlar falsafiy tafakkuriga ulkan hissa qo'shgan mutafakkir sifatida nom qozongan. Uning ma'naviy merosini, tarjimayi holini va ijodiy faoliyatini o'rganish, bir tomondan, ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarga davr ruhini chuqurroq anglatish, ijtimoiy munosabatlarni ularning qalbiga yetkazish, ularni milliy istiqlol mafkurasi, milliy ma'naviyatga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalash, adibning adabiyot ravnaqida va jamiyatda tutgan mavqeyini, uning novatorligini ko'rsatish, adabiy jarayonning rivojlanish bosqichlarini chuqurroq anglatish, yozuvchi shaxsining kamol topishi, ruhiy olami misolida yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etish, eng muhimi, o'rganilajak asarning yaratilishiga turtki bo'lgan voqea-hodisalar bilan tanishtirish, shu orqali matn mazmunini to'liq anglash va tushunishga imkon yaratish uchun xizmat qiladi, asarni o'qish uchun havas uyg'otadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur XVI asr turkiy xalqlar badiiy-falsafiy tafakkuri namoyondasi sifatida mashhur va uning asarlari rang-barang mavzularga bag'ishlangan. U o'zining hayoti, tajribalari va anglab yetgan falsafiy mushohadalari, dunyoqarashi bilan ham murakkablik kasb etadi. Bobur badiiy-falsafiy qarashlarida Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy kabi shoirlarning mumtoz an'alarini davom ettiradi hamda o'zining o'ziga xos falsafiy fikr-mulohazalarini jamiyatga taqdim etgan mutafakkir hisoblanadi.

Mirzo Bobur asarlari oliy intellekt va kreativ qobiliyatning yuksak namunasi bo'lib, jamiyatning turli sohalaridagi masalalarga yangicha yondashuv asosida tahlil qilishni o'z ichiga olgan. Mutafakkirning esdaliklari va asarlari orqali biz uning murakkab hayoti, ziddiyatli yashash tarzi, ayniqsa oilaviy masalalari, farzandlari bilan munosabatlarini to'laligicha anglaymiz.

Oila tarbiyasining sifati uning yakuniy natijasiga qarab belgilanadi. Farzandni oila quchog'ida go'zal va sharaflil ishlar qilishga yo'llashning eng muhim shartlaridan biri go'zal oila yarata bilishdir. Zotan, go'zallik bor yerda ma'naviy sharaf tug'iladi. Buning uchun eng avvalo, chin do'stlikka asoslangan ko'rkam oilani tashkil eta bilish zarur, chunki aziz umrimizning shirin mevasi bo'lgan farzandlarni insonparvar, go'zal va sharaflil ishlarning bunyodkorlari qilib tarbiyalash asosan oila quchog'ida, ular go'daklik chog'ida boshlanadi. Bu jihatdan Bobur oilasi ibratlidir. Bobur qancha yurt kezgan bo'lsada, g'alaba sharoitida ham, mag'lubiyat holatlarida ham uning oilasi o'zi bilan birga bo'ldi.

Oilaning tabiiy vazifasi –farzandlarni dunyoga keltirish, ijtimoiy vazifasi esa ularni to'g'ri tarbiyalashdan iborat. Bu hozirgi tez rivojlanayotgan, har tarafdin bosim o'tkazayotgan tahlikali zamonda yurt uchun, jamiyat uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Oila kichik bir jamoa bo'lsada, uning hayoti juda murakkab va ko'p qirralidir. Bunda oila tarbiyasida ham otaning, ham onaning ma'suliyati juda kattadir. Bobur ota sifatida, uning xotini ona sifatida bolalariga bir xilda mehribon va g'amxo'r bo'lganliklari uchun oila bolalarining hayoti kam-ko'stsiz kechdi va tarbiyasi mukammal bo'ldi.

Ma'lumot uchun Zahiriddin Muhammad Boburning turli xil xotinlaridan 9 ta qiz va 9 ta o'g'il farzand ko'rgan. Lekin farzandlarining ko'pchiligi bolaligida turli xil sabablar va kasalliklar tufayli vafot egan. Uzoqroq umir ko'rgan va tarixda o'z nomiga ega bo'lganlari quyidagilar:

1. Humoyun (1508-1556)
2. Kamron Mirzo (1509-1557)
3. Muhammad Askariy Mirzo (1517-1554)
4. Hindol Mirzo (1519-1551)
5. Gul Rangbegim (1511-1534)
6. Gulchehrabegim (1515-1557)
7. Gulbadanbegim (1522-1603).

Bobur oilasida onglilik bolalarining asosiy fazilati edi. Tarbiyada onglilikning ahamiyati katta. Chunki har qanday taraqqiyot inson kamoloti, madaniyatning shakllanishi, ilmiy, ijodiy va mehnat faoliyatining samaradorligi, xalq urf-odatiyu davlatining qudrati faqat ongli intizom bilangina ro'yobga chiqishi mumkin. Ulug' sarkarda, mumtoz shoir va olim Bobur o'z oila a'zolariga yuqoridagi nazariy fikrlarga suyanib ta'lim beradi. Ongli holda qattiqqo'llik bilan bolalar tartibli, intizomli bo'lishlarini talab etdi, tarbiyaladi. Va shunday intizomli va tartibli faoliyatda farzandlarini voyaga yetkazdi, o'stirdi.

Bobur tarbiyada sinchkov va sezgir edi, kattalarning yaxshi jihatlarini o'rgatish, o'rnak oldirishga istak hissi unda kuchli bo'lgan. Bobur ulug' kishilarning namuna bo'larli fazilatlarini bolalariga uqtirib, o'g'li, qizlari va nabiralari katta avlod tarbiya va qoidalariga to'la mos holda ulg'aytirdi. Shoir ularga diniy, dunyoviy, harbiy va xususan, vatanparvarlik ta'limi berilishini enagalardan, momolardan, ta'lim-tarbiya beruvchi ayollardan muntazam talab etib bordi.

“Boburnoma”da yozilishicha, Bobur o'z farzandlarining ta'lim-tarbiyasi haqida hamisha o'ylab, ularni o'qish va o'rganishga targ'ib qilar ekan. U “Mubayyin” risolasini Humoyun va Komronga diniy masalalarni o'rgatish uchun 1522-yilda nazmda yozadi. Boburning Humoyun va Komronga yozgan maktublari ham shu mavzuga qaratilgan.

Ko'rinib turibdiki, Bobur farzandlarining diyonatli, ilm-fazilatli bo'lib o'sishi uchun ularga kitob tanlab yuborish, ularning o'rganishi uchun kitoblar yozishni otalik va podsholik

burchi deb hisoblagan, ularni o'qish-o'rganishga targ'ib qilib, imlo va insho xatolarini to'g'rilab bexato, soda, ravon va betakalluf yozishga chorlagan.

Albatta, Boburning bunday sayi-harakatlari zoye ketmadi. Uning to'rtala o'g'li, qizi, nabiralari va ularning farzandlari ilmiy san'at, sheru adabiyotda nom qozondilar. Boburiylar sulolasidan ko'p sohibdevon shoirlar, tarixchilar, faqihlar, diniy va dunyoviy olimlarning ismini tazkiralardan keltirish mumkin. Gulbadanbegim Markaziy Osiyo tarixida yagona tarixchi ayol bo'lib, akasi Humoyunga atab “Humoyunnoma” asarini yozgan.

**Xulosa.** Bobur ilmiy-adabiy merosida farzand tarbiyasi masalalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Zahiriddin Muhammad Bobur qarashlarida tarbiya inson kamolotining asosiy omili sifatida talqin etiladi. Uning asarlarida, xususan, “Boburnoma” da aks etgan fikrlar shaxsni har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol va ijtimoiy mas'uliyatli qilib voyaga yetkazish g'oyasiga xizmat qiladi. Bu jihatdan Bobur merosi nafaqat tarixiy manba, balki muhim pedagogik-falsafiy konsepsiya sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Bobur farzand tarbiyasida avvalo axloqiy qadriyatlarni ustuvor deb biladi. Halollik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik va insonparvarlik kabi fazilatlar uning qarashlarida komil insonni shakllantiruvchi asosiy mezonlar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, u tarbiya jarayonida ota-onaning shaxsiy namunasini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Bu esa tarbiya nafaqat nazariy o'gitlar, balki amaliy hayotiy tajriba orqali shakllanishini anglatadi.

Bobur qarashlarida ilm-ma'rifatga alohida e'tibor beriladi. U yosh avlodni bilim olishga, tafakkurini rivojlantirishga va dunyoni anglashga undaydi. Bu jihat Sharq pedagogik an'analarining uzviy davomidir va Alisher Navoiy hamda Abu Nasr Forobiy kabi mutafakkirlar qarashlari bilan uyg'unlikda rivojlangan. Natijada, tarbiya jarayoni faqat axloqiy kamolot bilangina cheklanmay, balki intellektual taraqqiyot bilan ham bog'lanadi.

Shuningdek, Bobur farzand tarbiyasida vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga katta ahamiyat beradi. Uning fikricha, yosh avlod o'z yurtiga sadoqatli, xalq manfaatlarini himoya qila oladigan, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadigan shaxs bo'lib yetishishi zarur. Bu g'oyalar bugungi globalashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlash va mustahkamlash nuqtai nazaridan ayniqsa dolzarbdir.

Umuman olganda, Bobur ilmiy merosida farzand tarbiyasiga oid qarashlar tizimli va kompleks xarakterga ega bo'lib, ular axloqiy, ma'naviy, intellektual va ijtimoiy jihatlarni o'zaro uyg'unlashtiradi. Mazkur qarashlar zamonaviy pedagogika va tarbiya tizimi uchun muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, Bobur merosini chuqur o'rganish, uni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish va amaliyotga joriy etish yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda samarali natijalar berishi mumkin.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2016.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: Fan, 1980.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
6. Ibrohim Mo'minov. O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan. – Toshkent: Fan, 1994.

7. Eshmuhammad Yusupov. Falsafa. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. Pedagogika fanidan o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020.